MADANIY TADBIRLAR KONTEKSTIDA TALABALARNING BADIIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI VA TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH

Ergashev Omonboy Turgunbayevich
Namangan davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'limda talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishda artpedagogik yondashuvga asoslangan o'quv jarayonini zamonaviy raqamlashtirilgan sharoitda, zamonaviy nazariya va amaliyotning integratsiyalashgan muhitida tashkil etish, madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish modeli va "Art intellekt" texnologiyalarini loyihalashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy tafakkur, model, texnologiya, ijodiy tafakkur, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ma'naviy-axloqiy, milliy, tarbiyaviy, ijodiy jarayon.*

ПРОЕКТИРОВАНИЕ МОДЕЛИ И ТЕХНОЛОГИЙ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Ergashev Omonboy Turgunbayevich
Наманганский государственный педагогический институт, факультет естественных и точных наук, заместитель декана по работе с молодежью.
e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

Аннотатsiя. *В статье освещаются вопросы organizatsiu учебного процесса в высшем образовании на основе арт-педагогического подхода к совершенствованию художественного мышления студентов в условиях современной цифровизатsiи, в интегрированной среде современной теории и практики. Также рассматриваются вопросы проектирования модели совершенствования художественного мышления студентов в контексте культурных мероприятий и технологий "Art Intellect".*

Ключевые слова: *художественное мышление, модель, технология, творческое мышление, культурно-просветительские мероприятия, духовно-нравственный, natsиональный, воспитательный, творческий процесс.*

DESIGNING A MODEL AND TECHNOLOGIES FOR ENHANCING STUDENTS' ARTISTIC THINKING IN THE CONTEXT OF CULTURAL EVENTS

Ergashev Omonboy Turgunbayevich
Namangan State Pedagogical Institute, Faculty of Natural and Exact Sciences, Deputy Dean for Youth Affairs.
e-mail: omonboy.ergashev@mail.ru

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *The article explores the organization of the educational process in higher education based on an art-pedagogical approach aimed at enhancing students' artistic thinking in the context of modern digitalization and the integrated environment of contemporary theory and practice. It also addresses the design of a model for developing students' artistic thinking within the context of cultural events, as well as the development of "Art Intellect" technologies.*

Key words: *Artistic thinking, model, technology, creative thinking, cultural and educational events, spiritual and moral, national, educational, creative process.*

KIRISH

Bugungi kunda talabalarning badiiy tafakkurini o‘stirish, estetik dunyoqarashini shakllantirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Jahonda ta’lim tizimlari bo‘lajak kadrlarning ma’naviy va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Globallashuv sharoitida artpedagogikaning yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, g‘oyaviy-estetik immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bu esa talabalarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog‘lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda.

Xalqimizda “Ta’lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi”, degan so‘z bor. Tor ma’noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi [3; 12-b.].

Mamlakat taraqqiyoti uchun “yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish” [1] uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan” [2; 504-b.]. Yoshlarni tarbiyalashda va badiiy tafakkurini takomillashtirishda madaniy tadbirlarning o‘rni beqiyosdir.

Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish jarayonini modellashtirishda mamlakatimizda amalga

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, yaratilayotgan yangiliklar va rivojlanishlar, yoshlarning intellektual salohiyatining o‘sib borishi, rivojlanib borayotgan davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlari, rivojlanishlarga bog‘liq holda kun sayin o‘zgarib, yangilanib va rivojlanib borayotgan zamonaviy talablarga asoslanish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda madaniy tadbirlarning spetsifik xarakteri, pedagogik-didaktik imkoniyatlari hamda tarbiyaviy va estetik ahamiyati bo‘yicha F.E.Ahmedov, J.D.Dushamov, U.X.Qoraboyev, V.Q.Rustamov, B.S.Sayfullayev, B.A.Shodiyev, M.B.Umarov, madaniy tadbirlar vositasida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchi va talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari bo‘yicha A.R.Baxriyev, S.S.Bulatov, N.M.Egamberdiyeva, G.X.Ibragimova, N.J.Isaqulova, M.J.Ishmuratov, A.Y.Isimova, D.U.Jumanazarova, B.X.Madraimov, U.I.Mahkamov, R.M.Mamatqulova, O.Musurmonova, Q.B.Panjiyev, M.Quronov, O‘.M.Rajabov, A.Yu.Teshaboyev, A.T.Tilegenov, D.T.Tog‘ayeva va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijlik tadqiqotchilardan R.E.Butland, M.R.Davey, D.J.Getz, M.B.Gouthro, E.Kamel, P.Krishnasvami, M.Krishnasvami, U.V.Lambeth, B.Rudolff, S.Titchen izlanishlarida talabalarning badiiy tafakkuri va ijtimoiy-madaniy kompetentligini madaniy tadbirlarda moddiy va nomoddiy madaniy meros namunalarini targ‘ib etish, ommalashtirish vositasida takomillashtirishning metodologiyasi, amaliyotda qo‘llashning ilmiy va nazariy ahamiyati hamda metodik asoslarini takomillashtirishning ayrim jihatlari sifatida tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish bo‘yicha tadqiqot olib borgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Mazkur model talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga oid bilim va ko‘nikmalarini artpedagogik yondashuvga asoslangan hamda integratsiyalashgan muhitda samarali va sifatli o‘qitish, bu borada talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni samarali egallashga oid bo‘lgan o‘qitish jarayonini mantiqiy-semantik

loyihalashtirish hamda uning mazmunini variavtivlashtirish va unifikatsiyalashga oid masalalarning yechimini topish maqsadida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga yordam beradi.

Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish modeli tarkibiy qismi bir nechta komponentlardan iborat. Jumladan, maqsad va vazifalar, konseptual, kognitiv, operatsional, baholash va natijalar komponentlarini o‘zi ichiga qamrab oladi hamda ushbu har bir komponentlar talabalarning badiiy tafakkuriga oid bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish jarayonida o‘zining salmoqli o‘rni va ahamiyati mavjud.

Maqsadning yuzaga kelishi va uning asosida vazifalarning belgilanishiga madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishga oid strategiyalarini takomillashtirish ijtimoiy ehtiyojning mavjudligi hisoblanadi. Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida artpedagogik yondashuvga asoslangan modelning komponentlari mazmuni ifodalandi.

Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish modelining maqsadi artpedagogik yondashuv asosida madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga oid bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablar, jahon standartlari asosida takomillashtirish, vazifalari esa, artpedagogik yondashuvga asoslangan o‘quv jarayonini zamonaviy raqamlashtirilgan sharoitda, zamonaviy nazariya va amaliyotning integratsiyalashgan muhitida tashkil etish orqali madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ilg‘or o‘qitish metodikalarini amalda qo‘llash va ularni tajriba-sinov jarayonida samaradorligini aniqlashtirishdan iboratligi belgilangan.

Shuningdek, madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga qaratilgan modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi: madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish; modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish; model

blok va elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berish; modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Konseptual komponentda me’yoriy-huquqiy hujjatlar va madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog‘liq.

Kognitiv komponenti – madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning mazmuni bo‘lib, o‘zida bir nechta o‘zaro bir-biri bilan aloqador elementlarni qamrab oladi: 1) o‘zlashtirish; 2) qo‘llash; 3) umumlashtirish. Mazkur komponentda talabalar o‘quv jarayonida umumiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashi zarur hisoblanadi. Bunda umumiy bilim va ko‘nikmalarda – talabalar davlat siyosatining “dolzarb masalalarini bilishi, dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, madaniyat va san’at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga doir bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi, axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallash” kabi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

Operatsional komponenti – talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish jarayoni hisoblanadi. Bu tarkibiy qismda 1) ko‘maklashish; 2) qo‘llab-quvvatlash; 3) maslahat berish kabi uch elementlar o‘zida aks ettirib, madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga doir faoliyatga jalb etishning to‘rtta tamoyillarini qamrab oladi. Bu tamoyillarda badiiy tafakkurni takomillashtirishning profilaktik usullarini o‘zlashtirishda talabalar madaniyat va san’at tizimidagi ijodiy jarayonlarni tashkil etishi, drama teatri, musiqali drama teatri, qo‘g‘irchoq teatrlari, radio va televideniyeda, barcha maydon tomoshalari, konsert, shou dasturlarida badiiy obrazlar shakllantirish, aktyor sifatida ishlashi, shou dasturlarini tashkil etish, tashkiliy (ijodiy va ishchi) guruh tuzish, mahalliy aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishi hamda badiiy tafakkurni takomillashtirishga doir faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini mustaqil namoyon etish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

Baholash va natija komponentida o‘z-o‘zini tahlil etish, o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish usullarini qo‘llash, ijrochilik mahoratini o‘rganish, multimedia va badiiy vositalardan foydalanish, individual, guruhli, suhbat, kuzatish usullarini qo‘llash, ijrochilik mahoratini tekshirish, ijodiy ko‘rik va muhokamalarda ommaviy, guruhli, individual bahs munozara tashkil etish nazarda tutiladi.

Operatsional komponentning eng muhim jihatlaridan biri bu madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish jarayoni bo‘lib, mazkur jarayon bir qancha pedagogik-tashkiliy jarayonlardan iborat. Jumladan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy farazidan kelib chiqib, pedagogik metodikani amalga oshirishda va madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishda quyidagi vazifalarga e’tibor qaratildi:

1. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga qo‘yiladigan talablarning jamiyat ehtiyoji bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash;

2. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish uchun oliy ta’lim muassasalaridagi shart-sharoit hamda ijtimoiy va madaniy muhitni yaratish.

Mazkur vazifalarni o‘rganish va amaliyotga qo‘llash jarayoni bir qancha ilmiy izlanishlarida keltirilgan ma’lumotlar asosida shakllantirildi. Tadqiqot natijasida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning eng muhim tomoni, shaxsni tanlagan kasbiga va mehnat faoliyatiga bog‘liqligini asoslab, unda quyidagi maqsadlar tizimini, ehtiyojlar va motivlar bilan uyg‘unlashishini aniqlandi (1-rasmga qarang):

1-rasm. Badiiy tafakkurni takomillashtirishning muhim maqsadli tizimi

Shuningdek, madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga yo‘naltiruvchi quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi (2-rasmga qarang):

2-rasm. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga yo‘naltiruvchi sifatlar

Madaniy tadbirlarni o‘tkazishda tashkiliy faoliyat (metodologik) jarayonida talabalarda quyidagi bilish va ijodkorlikka xos sifatlarni namoyon qiladi:

talabaning o‘z individual faoliyati xususiyatlarini bilishi;

o‘quv predmetlari bilan mashg‘ullik orqali o‘z maqsadini anglash va tushuntira olish;

muvofiq maqsad, mazmunga mos dasturlarning mavjudligi, boshlagan ishni nihoyasiga yetkazish, maqsadga sodiqlik, maqsadga intilganlik va maqsadga erishish uchun sodiq qolish;

berilgan sohadagi o‘quv maqsadini o‘z oldiga qo‘ya olishi, muvaffaqiyatga erishish rejasini tuza olish, belgilangan rejani o‘z individual qobiliyatlaridan kelib chiqib bajarish, o‘z natijasiga erishish va anglash, o‘z natijalarini tengdoshlari natijalari bilan taqqoslash;

faoliyat qoidalarini shakllantirish, uning qonunlari sistemasini shakllantirish;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

o‘z-o‘zini tashkillash malakalari: faoliyatni rejalashtirish, dasturlash, faoliyat etaplari va usullarini korreksiya (tahrir) qilish, faoliyatning tartiblashtirilganligi, bir vaqtning o‘zida ongda alternativ fikrlarni ushlab qolish:

o‘z-o‘zini nazorat, tahlil qilish va baholash;

ta’limning boshqa subyektlari va atrof olam bilan munosabatga kirisha olish, o‘z g‘oyasida tura olish, himoya qilish, qat’iylik;

boshqalarda ijodkorlikni tashkil qila olish, boshqa talabalar g‘oyalarini o‘rganish va qayta ishlash, aqliy hujum tashkil qila olish, unda ishtirok etish, g‘oyalarni taqqoslash, bahs va munozara yurita olish qobiliyati.

Mazkur sanab o‘tilgan hamda talabalarda qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida ularning evristik sifatlarini, ta’lim maqsadlarini shakllantirishda foydalaniladi. Shu ma’noda, kreativ ta’lim faoliyati talaba tomonidan ijodiy ta’limiy mahsulot yaratishga yo‘naltirilishi lozim.

Tadqiqotchi S.H.Fayzulina badiiy tafakkurni tarbiyalashning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog‘liqligini ta’kidlaydi:

“talabalar san’atni chuqqurroq tushunishga, o‘rganishga, his qilishga intilishlari uchun o‘ziga xos targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish;

badiiy tafakkur tarbiyasiga oid istiqbolli rejaning mavjudligi;

badiiy tafakkur tarbiyasida adabiyot va shu kabi vositalardan foydalanish;

talabalarni madaniy tadbirlarni o‘tkazishda faol ishtirok etishlariga chaqirish;

talabalarda san’atga qiziqishni singdirish maqsadida ko‘rsatiladigan kundalik va ko‘p qirrali faoliyat” [4; 24-b.].

Shuningdek, u o‘z tadqiqotida madaniy tadbirlar va ularni o‘tkazishning quyidagi tamoyillarini qayd etib ko‘rsatadi: “g‘oyaviy estetik yo‘nalganlik; ilmiy va nazariy bilimlarning amaliyot bilan aloqasi; onglilik va emotsionallikning o‘zaro ta’siri; badiiy ta’lim va tarbiyaning birligi; badiiy faoliyatning ko‘pqirraligi; talabalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqilligi; tizimlilik, izchillik, vorislilik; badiiy tafakkur tarbiyasining kasbiy yo‘nalganligi; badiiy tarbiyaning ommaviyligi, umumiyligi” [4; 26-b.].

Inson badiiy tafakkuri ilmiy va ijodiy salohiyat orqali kengayib boradi. Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatini yanada rivojlantirish, ijodiy

barkamolligini ta'minlash, har qaysi sohada kreativlikni oshirishga qaratilgan e'tibor oshib bormoqda[5; 60-b.].

Zamonaviy sharoitda talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta'lim amaliyotida ta'limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o'qitish texnologiyalari ajratib ko'rsatiladi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash kerak. Shu bois tadqiqot jarayonida madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning "Art intellekt" texnologiyasi ishlab chiqildi. (3-rasmga qarang):

2.8-rasm. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning "Art intellekt" texnologiyasi

Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishning "Art intellekt" texnologiyasi refleksiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirilib, maqsadga yo'naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oldi: *tashkiliy-tayyorlov*

– badiiy tafakkur yuzasidan kerakli axborotni taqdim etish jarayonida talabalarda mavjud bilimlarni faollashtirish hamda dars mazmunini badiiy tafakkurga yo‘naltirish; *amalga oshirish va anglash* – badiiy tafakkurga oid mavzuga qiziqtirish va badiiy tafakkurni takomillashtiruvchi – tarbiyalovchi omillar bo‘yicha ma’lumot berish; *monitoring* – berilgan topshiriqlarni nazorat qilish va badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasini baholash; *refleksiya va natija* – talabalar badiiy tafakkurga oid o‘quv materiallar mazmunini mustaqil tahlil qilish bilan birga yangi bilimlarni anglash.

Artpedagogik yondashuvga asoslangan texnologiya talabalarning umumiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshirishga yordam beradi. Bunda majburiy fanlarni o‘qish jarayonida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasini o‘zlashtirishi, tanlov fanlarini o‘qish jarayonida ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur bilimlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasini o‘zlashtirishi nazarda tutiladi.

XULOSA

Talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishda konseptual, kognitiv, operatsional va baholovchi-natijaviy bloklarni qamrab olgan modeldan foydalanish samaralidir. “Art intellekt” texnologiyasi talabaning nafaqat nazariy yoki amaliy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga, balki talabaning individual qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga qaratilgan metodikalar auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Sayfullayev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 180 b.
4. Файзулина С.Х. Эстетическое воспитание студенческой молодёжи. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – 32 с.
5. Достонбек Раҳматуллаев “Ёшлар ижодий тафаккурини шакллантиришда кино санъатининг ўрни” Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: “Инноватsion ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. – 296 б.